



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
davlat va huquq asoslari
fani o'qituvchisi

_____ *ning*
20__-20__-o'quv yiliga 9-sinflar uchun
I yarim yillik

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf davlat va huquq asoslari fanidan
I yarim yillik taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. (Loyiha ishining baholash mezonini e’lon qilish)	1		
2.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi	1		
3.	Huquqiy davlatda Konstitutsiyaning o‘rni	1		
4.	Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari. Davlat suvereniteti	1		
5.	Xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy asoslari	1		
6.	O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunning ustunligi	1		
7.	O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati	1		
8.	1-Nazorat ishi	1		
9.	Ijodiy faoliyat	1		
10.	O‘zbekiston Respublikasida fuqarolikning umumiy qoidalari	1		
11.	Fuqarolarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar	1		
12.	O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish, tugatish va tiklash asoslari	1		
13.	Chet elda yashovchi vatandoshlar bilan munosabatlarni saqlash va rivojlantirish	1		
14.	Ijodiy faoliyat (Amaliy dars)	1		
15.	2-Nazorat ishi	1		
16.	Ijodiy faoliyat	1		

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni. (Loyiha ishining baholash mezonini e’lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o’zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas’uliyati, huquq normalarini hayotda mustaqil qo’llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o’rgatish, mustaqil o’qish, izlanish, tarixiy, ma’naviy, huquqiy manbalarni o’rganish asosida to’laonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo’lish, mavzular bo’yicha amaliy mashg’ulotlarda amaliy ko’nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlari, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo’lishiga, o’zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o’z o’rnini topishiga ko’maklashish.

Rivojlantiruvchi: mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o’rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O’quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativlik kompetensiyasi:

o’z fikrini og’zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to’g’ri qo’ya olish va javob berish; ijtimoiy moslashuvchanlik, o’zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mavjud axborot manbalaridan foydalana olish; axborotga ega bo’lish, uni tasarruf etish va uni tarqatish qoidalariga rioya qilish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko’rgazmalar va tarqatma materiallar, o’quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo’limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O’tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so’rash: a) Savol – javob o’tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Bugungi zamonaviy demokratik davlatni asosiy qonun – konstitutsiyasiz tasavvur qilish juda mushkul. Konstitutsiya – insoniyatning jamiyat hayotini tartibga solishga qaratilgan eng muhim tarixiy kashfiyotlaridan biri sifatida hozirgi davrga qadar xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlarini, shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni, jamiyat va davlat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini tuzish tartibi hamda ularning ish faoliyati asosiy prinsiplari va vakolatlarini belgilab beradi. Konstitutsiya davlatlar vujudga kelgan davrlardan ancha kech paydo bo'ldi. Demak, davlatlar tarixan konstitutsiyasiz faoliyat yuritgan. Konstitutsiyalarning paydo bo'lishiga bir qancha omillar o'z ta'sirini o'tkazgan. Insonlarning huquq va erkinliklarini qonunlarda mustahkamlash hamda davlat va inson o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish ularni alohida qonunlar orqali belgilash zaruratini vujudga keltirdi. Dunyo tarixidagi dastlabki konstitutsiya 1787-yilgi AQSH konstitutsiyasidir. Dastavval AQSH konstitutsiyasida hokimiyatlar bo'linishi: qonunchilik, ijro, sud hokimiyatini tashkil etish prinsiplari va tartibi, federatsiya subyektlari huquqlari belgilangan edi. Keyinchalik inson va fuqaro huquqlariga oid qo'shimchalar kiritildi. Shundan so'ng Polsha va Fransiyada ham konstitutsiyalar qabul qilindi. Bugungi kunda jahondagi 200 dan ortiq davlatlarda o'z konstitutsiyasi amal qiladi. Barcha qonunlar, kodekslar, qarorlar va farmonlar konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinadi. Bu esa davlatning har bir me'yoriy hujjati konstitutsiyaga mos kelishi shart ekanini anglatadi. Konstitutsiya jamiyat hayotining barcha sohalariga, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy, mehnat faoliyati, shaxsiy hayot va boshqalarga ta'sir o'tkazadi.



AQSH konstitutsiyasining qabul qilinishi



Zamonaviy dunyoda 200 dan ortiq davlatlar mavjud va ularning deyarli har biri o'z konstitutsiyasiga ega. Turli davlatlarning konstitutsiyalari bir qancha sabablarga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Konstitutsiyalar turli davr va sharoitlarda vujudga kelgani sababli ularning turlari ham xilma-xildir.

Konstitutsiyalarning shakli, qabul qilinishi, amal qilishi va o'zgartirish tartibi kabi jihatlariga ko'ra quyidagi turlari mavjud. **Ifoda qilish shakliga** ko'ra, konstitutsiyalar "yozilgan" va "yozilmagan" konstitutsiyalarga bo'linadi. Yozilgan konstitutsiya alohida tartibda qabul qilingan, yagona hujjat sifatida e'tirof etiladi (**AQSH, Fransiya**). Ba'zi davlatlarda konstitutsiyalar yagona hujjat shaklida qabul qilinmaydi, turli munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar qabul qilingan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Qadimgi davlatlarda qonunlar mavjud bo'lsa-da, yaxlit asosiy qonun – konstitutsiyaning yaratilishiga bo'lgan zarurat nimadan iborat edi?
2. Jahonda qabul qilingan dastlabki konstitutsiyalar va ularning tarixiy ahamiyati qanday?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:			
Sinf:			

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: darsda ayni paytda dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning muttasil o‘zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji barcha fanlar uchun yuksak mas’uliyati, huquq normalarini hayotda mustaqil qo‘llashga va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini hurmat qilishga o‘rgatish, mustaqil o‘qish, izlanish, tarixiy, ma’naviy, huquqiy manbalarni o‘rganish asosida to‘laqonli bilim va tasavvurlarga, nazariy bilimlarga ega bo‘lish, mavzular bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: huquqiy bilimlarini mustahkamlashga, yurtimizda barcha sohalarda, xususan, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlari, yuksak axloqiy qadriyatlar bilan birga huquqiy madaniyatga ega bo‘lishiga, o‘zi yoqtirgan kasbni tanlab, mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish.

Rivojlantiruvchi: mazkur huquq va erkinliklarni yetarli darajada himoya qila olish madaniyatini shakllantirish davlat va huquq asoslari fani zimmasiga tushishi xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o‘rgatish, fanga qiziqishini ortirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

jamiyatda bo‘layotgan voqya, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; ta’lim jarayonida faol ishtirok etish.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Davlat mustaqilligi uchun qo‘yilgan asosiy qadam sifatida e’tirof etiladigan, 1990-yil 20-iyunda qabul qilingan Mustaqillik deklaratsiyasi yangi konstitutsiyani yaratish uchun asos bo‘ldi. Deklaratsiya qabul qilingan Oliy Kengash sessiyasida yangi konstitutsiya ishlab

chiqish zarurati haqida xulosaga kelindi hamda konstitutsiya loyihasini tayyorlash uchun 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Konstitutsiya loyihasida jahonda umume'tirof etilgan prinsiplar va g'oyalarga amal qilish bilan birga, unda o'zbek xalqining davlatchiligi, ajdodlarimiz g'oyalari, qadriyatlarimiz o'z ifodasini topishiga alohida e'tibor berildi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi uch oy davom etdi. Umumxalq muhokamasi jarayonida kelib tushgan 6 000 ta taklif asosida loyihaga 80 dan ortiq tuzatishlar kiritildi. Keng umumxalq muhokamasi davomida bildirilgan ko'plab takliflar inobatga olingan holda komissiya tomonidan tayyorlangan Konstitutsiya loyihasi Oliy Kengash muhokamasiga qo'yildi. Mustaqil davlatning Konstitutsiyasi – davlatning asosiy qonuni sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini mustahkamlab, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari faoliyati asoslarini belgiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'i qoidaga aylantirish, bir so'z bilan aytganda, bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" yondashuvini Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirishni taqozo etdi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2022-yil 20-may kuni Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida: "Bosh maqsadimiz – har bir yurtdoshimiz ushbu hujjatni mening Konstitutsiyam deb faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqishdir", deb ta'kidlagan edi.

2023-yilning 30-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazildi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz bevosita fuqarolarimiz tomonidan qabul qilindi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. O'zbekiston Konstitutsiyasining yaratilishiga qanday sabablar ta'sir qildi?
2. Konstitutsiyaning yaratilishi va uning yangilanishida xalqimizning roli qanday?
3. Konstitutsiyani ishlab chiqishda milliy qadriyatlar qay darajada e'tiborga olingan?
4. Konstitutsiyaga nima uchun o'zgartirish, qo'shimchalar kiritiladi, buning tartibi qanday?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

34 listdan iborat huquq fanidan 9-sinf I yarim yillik konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni xizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quyidagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**